

Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Sentabr
№9, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245



Toshkent-2026

Platform & workflow by

OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vilniaus Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 44-sahifa.
2026-yil, sentabr.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

КУРПАЯНИДИ КОНСТАНТИН ИВАНОВИЧ

Стратегии цифровой трансформации в Европейском союзе и потенциал институционального трансфера Французского опыта в Узбекистан.....11

ERGASHEV RUSTAM RAJABOVICH

Ilmiy ishlanmalar asosida Spin-off korxonalarini tashkil etish va rivojlantirishning bosqichli boshqaruv modeli.....25

ABDURAXMANOVA MUQADDAS TOXTASINOVNA

Temir yo'l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilg'or mexanizmlari.....34

ABDULLAYEV ILYOS AXMADOVICH, JABBOROV JAMOLIDDIN MUXAMMADJON O'G'LI

Surxondaryo viloyatida demografik jarayonlarning statistik tahlili.....44





SURXONDARYO VILOYATIDA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING STATISTIK TAHLILI

ABDULLAYEV ILYOS AXMADOVICH

Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

E-mail: abdullayev.ilyos1986@gmail.com

JABBOROV JAMOLIDDIN MUXAMMADJON O'G'LI

Toshkent amaliy fanlar universiteti Bank ishi yo'nalishi

BI24-01 guruh 3-bosqich talabasi

E-mail: jabborovjamolbek58@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining zamonaviy demografik jarayonlari chuqur statistik tahlil qilingan. Aholining umumiy soni, uning dinamik o'sishi, tabiiy o'sish ko'rsatkichlari, tug'ilish va o'lim darajasi o'rganilgan. Hududda kechayotgan urbanizatsiya jarayonlari va mehnat resurslarining tarqalishi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liqlikda yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida viloyatda demografik siyosatni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: demografik jarayonlar, aholi soni, tabiiy o'sish, tug'ilish, o'lim, migratsiya, zichlik, statistik tahlil, Surxondaryo viloyati.

Аннотация. В данной статье представлен подробный статистический анализ современных демографических процессов Сурхандарьинской области. Изучены общая численность населения, динамика его роста, темпы естественного прироста, рождаемость и смертность. В связи с экономическими показателями освещены процессы урбанизации и распределения трудовых ресурсов в регионе. На основе результатов исследования разработаны научно-практические предложения по совершенствованию демографической политики в регионе.

Ключевые слова: демографические процессы, население, естественный прирост, рождаемость, смертность, миграция, плотность населения, статистический анализ, Сурхандарьинская область.

Abstract. This article provides a detailed statistical analysis of the modern demographic processes of the Surkhandarya region. The total population, its dynamic growth, natural growth rates, birth and death rates are studied. The processes of urbanization and the distribution of labor resources in the region are highlighted in connection with economic indicators. Based on the results of the research, scientific and practical proposals for improving demographic policy in the region are developed.

Keywords: demographic processes, population, natural growth, birth, death, migration, density, statistical analysis, Surkhandarya region.

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar jarayonida hududlarning demografik salohiyatini o'rganish, aholi sonining o'zgarish tendentsiyalarini bashorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hamda asosiy iste'molchisi hisoblanadi. Shu bois, mamlakatning har bir hududida, jumladan, strategik ahamiyatga ega bo'lgan Surxondaryo viloyatida kechayotgan demografik jarayonlarni chuqur statistik jihatdan tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Surxondaryo viloyati o'zining tabiiy-geografik o'rni, yuqori tabiiy o'sish sur'atlari va mehnat resurslarining ko'pligi bilan respublikaning boshqa





hududlaridan farq qiladi. Viloyatda aholi sonining jadal o'sib borishi bir tomondan iqtisodiyot tarmoqlari uchun malakali kadrlar va mehnat salohiyatini ta'minlasa, ikkinchi tomondan yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy infratuzilma (ta'lim, tibbiyot, uy-joy va kommunal xizmatlar)ni yanada rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Maqolaning asosiy maqsadi Surxondaryo viloyatining so'nggi yillardagi demografik ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hududiy demografik jarayonlarni o'rganish va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholash ilm-fanda doimo dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Jahon olimlaridan A.Sauvy, D.J.Bogue va J.C.Caldwell kabi tadqiqotchilar aholi takror barpo etilishining nazariy asoslarini va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligini tadqiq qilishgan.

O'zbekistonda demografik jarayonlar, aholi sonining o'sish tendentsiyalari va mehnat bozori muammolari bo'yicha mamlakatimiz iqtisodchi olimlari B.Q.Qodirov, M.P.Solijonov, T.O.Shirinov va boshqalarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Xususan, respublikaning janubiy hududi hisoblangan Surxondaryo viloyatining tabiiy-geografik joylashuvi, yuqori tabiiy o'sish sur'atlari va mehnat resurslarining o'ziga xos xususiyatlari mahalliy darajada chuqur statistik yondashuvni talab etadi. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar umummilliy darajadagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga qaratilgan bo'lib, Surxondaryo viloyatining so'nggi yillardagi yangi demografik o'zgarishlarini alohida statistik tahlil qilish masalalari yetarlicha yoritilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning mantiqiylik, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik-iqtisodiy tahlil, dinamik qatorlar, guruhlash hamda kuzatish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasining rasmiy yillik ma'lumotlari, Surxondaryo viloyatining statistika boshqarmasining hududiy ko'rsatkichlari asosiy axborot manbasi bo'lib xizmat qildi. Tahlil jarayonida nisbiy va o'rtacha miqdorlar, vaqtinchalik qatorlar tahlili hamda demografik koeffitsientlarni hisoblash usullaridan foydalanilgan holda hududdagi aholi sonining o'zgarish tendentsiyalari matematik-statistik nuqtai nazardan baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryoda doimiy aholi soni 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 3011,0 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 65,5 ming kishiga yoki 2,2 foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 1087,0 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 36,1 %), qishloq joylarda esa



1924,0 ming kishi (63,9 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 1486,6 ming kishini (49,4 %), erkaklar esa 1 524,4 ming kishini (50,6 %) tashkil etmoqda.


1-jadval

Doimiy aholi soni, ming kishi*

Tuman va shaharlar nomi	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, %da
Surxondaryo viloyati	2945,5	3011,0	102,2
Termiz sh.	207,3	213,0	102,7
tumanlar:			
Oltinsoy	197,4	201,8	102,2
Angor	147,0	150,1	102,1
Bandixon	85,3	87,6	102,7
Boysun	127,1	129,4	101,9
Muzrabot	156,8	159,9	102,0
Denov	430,5	440,5	102,3
Jarqo'rg'on	244,0	249,0	102,1
Qumqo'rg'on	261,6	267,2	102,1
Qiziriq	126,9	129,6	102,1
Sariosiyo	232,9	238,0	102,2
Termiz	87,2	89,7	102,9
Uzun	192,4	196,7	102,2
Sherobod	214,9	218,9	101,8
Sho'rchi	234,2	239,6	102,3

Manba: <http://www.surxonstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

Surxondaryoda 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 149,8 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 3,3 kishiga ortgan (2025-yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga 146,5 kishi).




Manba: <https://surxonstat.uz/uz/default/press-relizlar/11679-2024-yil>

1-rasm. Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni*

Tug'ilganlar va vafot etganlar.

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni 81,9 ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 27,5 promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,2 ming nafarga kamaygan. Vafot etganlar soni 12,9 ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 270 nafarga ko'paygan.




Manba: <https://surxonstat.uz/uz/default/press-relizlar/11679-2024-yil>.

2-rasm. Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi*

Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni 81,9 ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni 42,3 ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan 51,6 %), qiz bolalar soni 39,6 ming kishini (48,4 %) va shahar joylarida 27,2 ming kishini (33,2%), qishloq joylarida 54,7 ming kishini (66,8 %) tashkil etdi. Viloyatimizda vafot etganlar soni 12,9 ming kishini, shundan erkaklar 7,1 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 54,7 %), ayollar 5,8 ming kishini (45,3 %) va shahar joylarida 4,2 ming kishini (32,9 %), qishloq joylarida 8,7 ming kishini (67,1 %) tashkil qildi.

Nikohlar va nikohdan ajralishlar.

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni 22,8 ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 7,6 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,5 ming birlikka kamaygan. Nikohdan ajralishlar soni 3,1 ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,2 ming birlikka ko'paygan.



Manba: <https://surxonstat.uz/uz/default/press-relizlar/11679-2024-yil>

3-rasm. Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik*

Aholi migratsiyasi.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni 10 832 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar 10 832 kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar mavjud emas. Ko'chib ketganlar jami soni 14383 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar 14358 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar 25 kishini tashkil qildi.

2-jadval

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi*

Shahar va tumanlar nomi	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Surxondaryo viloyati	10832	10832	-	14383	14358	25
Termiz sh.	3896	3896	-	2154	2150	4
tumanlar:						
Oltinsoy	215	215	-	662	662	-
Angor	643	643	-	682	681	1
Bandixon	264	264	-	408	408	-
Boysun	342	342	-	808	808	-
Muzrabot	442	442	-	880	876	4
Denov	807	807	-	1270	1264	6
Jarqo'rg'on	382	382	-	1214	1212	2
Qumqo'rg'on	567	567	-	1070	1068	2
Qiziriq	316	316	-	630	630	-



Sariosiyo	315	315	-	795	795	-
Termiz	1466	1466	-	1203	1202	1
Uzun	308	308	-	720	717	3
Sherobod	503	503	-	1085	1084	1
Sho'rchi	366	366	-	802	801	1

Manba: <http://www.surxonstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

XULOSA

Surxondaryo viloyatida kechayotgan demografik jarayonlar yuqori tabiiy o'sish sur'atlari, qishloq aholisining ustunlik qilishi va mehnat resurslarining jadal ko'payib borishi bilan tavsiflanadi. Aholining son jihatdan o'sishi hudud iqtisodiyoti uchun ham iste'mol bozorini kengaytirish, ham mehnat salohiyatini oshirishda muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, qishloq joylarida yangi ish o'rinlarini yaratish hamda ijtimoiy infratuzilmani aholi o'sish sur'atlariga mos ravishda rivojlantirish demografik barqarorlikni ta'minlashning bosh sharti bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlari. (stat.uz)
2. Qodirov B.Q. Hududiy demografik jarayonlar va ularni boshqarish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Surxondaryo viloyati statistika boshqaruvi hisobotlari va yillik to'plamlari. Termiz, 2024–2026 yy.
4. <https://surxonstat.uz/uz/default/press-relizlar/11679-2024-yil>.
5. <http://www.surxonstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjournal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy